

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA SAFARNOMA JANRINING SHAKLLANISHI

Jo'rayeva Manzura Axronqulovna

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida alohida o'rin tutgan va mustaqil janr sifatida shakllangan safarnoma janrining tarixiy taraqqiyoti, uning paydo bo'lishi va shakllanish bosqichlari atroficha tahlil qilinadi. Maqolada mumtoz adabiyotdagi boshqa janrlar tizimi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, safarnoma janrining poetik tuzilishi, kompozitsion strukturasi, badiiy-publitsistik tabiatiga xos bo'lgan asosiy belgilar hamda ushbu janrdagi asarlarning manbashunoslik va adabiyotshunoslikdagi o'rni atroficha asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: safarnoma, janr, xususiyat, shakllanishi, an'ana, novatorlik, adabiy ta'sir.

ФОРМИРОВАНИЕ ЖАНРА ПУТЕВЫХ ЗАМЕТОК В УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: В данной статье подробно анализируются историческое развитие, этапы возникновения и формирования жанра сафарнаме (путевых заметок), занимающего особое место и сформировавшегося в качестве самостоятельного жанра в узбекской классической литературе. В работе освещается система других жанров классической литературы и их специфические особенности. Также детально обосновываются поэтическая структура, композиционное строение и ключевые признаки художественно-публицистической природы жанра сафарнаме, а также значение произведений данного жанра в источниковедении и литературоведении.

Ключевые слова: путевые заметки, жанр, характерные черты, формирование, традиция, новаторство, литературное влияние.

FORMATION OF THE TRAVELOGUE GENRE IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the historical development, emergence, and stages of formation of the safarnama (travelogue) genre, which holds a special place and has developed as an independent genre in Uzbek classical literature. The paper highlights the system of other classical literary genres and their specific characteristics. Furthermore, it thoroughly substantiates the poetic structure, compositional framework, and key defining traits of the artistic and publicistic nature of the safarnama genre, as well as the significance of works within this genre in source studies and literary scholarship.

Keywords: travel writing, genre, characteristics, development, tradition, innovation, literary influence.

Kirish. Mumtoz adabiyot tarixida safar va sayohat tafsilotlarini bayon qiluvchi asarlarning ildizi insoniyat tamaddunining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Safar ma'lumotlari dastlab tarixiy va geografik manbalar tarkibida namoyon bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan mustaqil badiiy-publitsistik hodisa sifatidagi maqomiga ega bo'ldi. Biroq filologik tahlil jarayonida safarnoma hamda sayohatnoma tushunchalarini bir-biridan aniq cheklab, farqlab olish nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu kunga qadar o'zbek adabiyotshunosligida ushbu ikki tushuncha aksar hollarda bir-biriga muqobil, ya'ni sinonimik hodisa sifatida qo'llanib kelindi. Vaholanki, ularning badiiy metodologiyasi va voqelikni aks ettirish prinsiplari tubdan farq qiladi. Safarnomada taxayyul (xayolot) ma'lum darajada rol o'ynasa-da, u mutlaq mustaqil emas, balki real voqeyatga qat'iy tobe bo'ladi. Muallif safarnoma matniga o'zicha uydirma yoki tasdiqlanmagan jiddiy detallarni kirita olmaydi. Shuning uchun ham safarnoma poetikasi va bayon uslubining ustuvor metodi realizm bo'lishi lozim. O'rta asrlar yozma yodgorliklarida ba'zi mualliflar tasvir jarayonida badiiy uydirmalarga yo'l qo'rgan bo'lsalar-da, bunday holat asarning obyektiv haqiqatni yoritishdagi ilmiy-tarixiy qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [6:149].

Safarnoma va sayohatnoma o'rtasidagi boshqa asosiy farqlar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Maqsad va uslubiy yo'nalish: Safarnoma muayyan va aniq belgilangan maqsad (elchilik, ilmiy izlanish, haj ziyorati, savdo-sotiq) asosida yoziladi. Sayohatnomada esa ko'proq romantizm unsurlari, muallifning shaxsiy taassurotlari, sarguzasht ko'rinishlari ustunlik qiladi.
- Faktologik aniqlik: Aniq maqsad bilan yo'lga chiqqan muallif o'z asarida faktlar sofligi, zamon va makon (xronotop) aniqligi, atrof-muhit hamda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni boricha, obyektiv tasvirlashga intiladi.
- Qiyosiy-tahliliy yondashuv: Safarnomada tasvirlash jarayoni shunchaki kuzatuvdan iborat bo'lmaydi. Muallif o'zga yurt madaniyati va turmush tarzini o'zi yashayotgan muhit bilan taqqoslaydi, tahlil qiladi va shaxsiy munosabat bildiradi.

Ushbu funksional va strukturaviy rang-baranglik safarnoma janrining mavzu hamda yo'nalish jihatidan bir qancha turlarga (diplomatik/elchilik safarnomalari, ilmiy-geografik safarnomalar, diniy-ziyosat safarnomalari va publitsistik safarnomalar) bo'linishini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Imom Buxoriyning "Al-jomi' as-sahih" [4:173] hadislar to'plamida ham "Namozni qazo o'qish" haqidagi boblarda hamda "Umraning vojibligi va fazilati" qismida safar bilan bog'liq hadislar keltirilgan. Ularda safarning zarurati, shukronasi, hayrat bilan ayni paytda mashaqqati, mas'uliyati, qiyinchiliklari eslatilgan. Safar zahmatlarini bo'yniga olib yo'lga chiqqan insonga Islomda ibodat amallarini bajarish borasidagi tartib-qoidalar Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ibratlari misolida rivoyat qilingan. Shuningdek, islom olamining buyuk mutafakkirlari Abu Homid G'azzoliyning "Saodatga eltuvchi ilm" [2:173], Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" [8:76] asarlarida safar xususida qimmatli fikrlar aytilgan.

Abu Rayhon Beruniy 1017-yildan boshlab, ya'ni Xorazm sulton Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingach, G'azna shahrida sulton Mahmud va uning vorislari Ma'sud hamda Ma'dudlar saroyida yashaydi, Mahmudning Hindistonga qilgan safarlarida qatnashib, bir necha yil shu yerlarda yashaydi ham. Al-Beruniy ijodida "G'azna" bosqichi eng sersamara bosqich bo'lgan. Shu yillar Hindistonga qilingan safarlari uning tayanch asari bo'lmish "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" ("Hindiston" 1030-yil tamomlangan) dan joy olgan. Sulton Mahmudning o'limidan so'ng taxtni uning o'g'li Ma'sud egallaydi. U Beruniyga juda iltifotli bo'lgan. Beruniy Ma'sud haqida shunday deydi: "U menga butunlay ijod bilan shug'ullanishim uchun sharoit yaratib berdi, meni o'z rahnamoligiga oldi..." [3]. Ko'rinadiki, Abu Rayhon Beruniy o'sha davrdayoq safar taassurotlari asosida asarlar bitgani, unda shoh va ellatlar taqdirini, urf-odatini tasvirlagan. Bu esa safarnoma janrining o'ziga xos xususiyatini namoyon qilgan.

Sharq mumtoz adabiyotida safar taassurotlari bayon etilgan mashhur "Safarnoma" asari XI asrda fors shoiri, faylasuf, donishmand olim Nosir Xisrav tomonidan yaratilgan. Asarda

1045-1052-yillar mobaynida amalga oshirilgan safar natijasida Eron, Armaniston, Ozarbayjon, Suriya, Misr, Arabiston, Tabriz, Qohira, Quddus, Makka, Madina, Yaman, Isfahon kabi shaharlar bo'yicha to'plangan qimmatli ma'lumotlar berilgan. Xorazm, Samarqand, Buxoro, Movarounnahr tarixiga oid ma'lumotlarni O'rta asrning mashhur sayyohi Ibn Battuta 1356-yilda yakunlagan "Sayohatnoma" asarida yozib qoldirgan.

Muhokama. Sharq adabiyotshunosligida safarnoma janrining genetik ildizlari, evolyutsion bosqichlari hamda uning sintetik tabiatini o'rganishda akademik N.I. Konradning nazariy qarashlari muhim metodologik ahamiyatga ega. Olim o'zining "Sharq va G'arb" nomli fundamental tadqiqotida Sharq, xususan, Markaziy Osiyo adabiy muhitida safarnomaning janriy shakllanishi va funksional darajalarini atroflicha tahlil etadi. N.I. Konrad ta'kidlaganidek: "Markaziy Osiyo mamlakatlarida safarnoma asosan etnografik, geografik va ilmiy xarakterga ega bo'lib, vaqt va makon orqali safarni aks ettirib, xotira, memuar va biografik bitiklarning xususiyatlarini birlashtiradi. Keyinchalik ularning mazmunida ijtimoiy-falsafiy, psixologik vazifalar va badiiy tamoyillar o'zaro qorishib ketadi. Shuningdek, ularda real voqelik, lirik chekinishlar va qo'shimcha epizodlarning birlashishi ham kuzatiladi" [5:251].

Ushbu ilmiy qarash safarnoma janrining sinkretik (muxtaliif unsurlarni o'zida jamlagan) tabiatini atroflicha yoritib beradi:

- Janrning ilmiy-hujjatli va strukturaviy asoslari: Dastlabki bosqichlarda safarnomalar sof amaliy va ilmiy maqsadlarga xizmat qilgan. Mualliflar bosib o'tilgan masofa, geografik obyektlar, turli el-uluslarning urf-odatlarini hamda ma'muriy-hududiy tuzilishini aniq faktlar vositasida qayd etganlar. Bu bosqichda asar matnida xronotop (vaqt va makon birligi) yetakchilik qilib, matn strukturasi memuar (xotira) va biografik qaydlarga yaqinlashadi.

- Badiiy-falsafiy evolyutsiya va psixologizm: Vaqt o'tishi bilan safarnoma matnida informativ-hujjatli bayon tamoyili ikkinchi darajaga o'tib, asarning ijtimoiy-falsafiy va psixologik miqyosi kengayib boradi. Muallif (sayyoh/elchi/ziyoratchi) ko'rgan-kechirganlarini shunchaki tasvirlash bilan cheklanmay, o'zga madaniyat bilan to'qnashuv fonida o'zining ichki kechinmalari, milliy o'zlik haqidagi musohadalari va insoniy munosabatlarni tahlil etishga o'tadi.

- Poetik unsurlar va lirik chekinishlar: Rivojlangan safarnomalarda badiiy shartlilik hamda lirik chekinishlar alohida o'rin tutadi. Muallif yo'l taassurotlari jarayonida ruboiy, qasida yoki g'azallar kiritish, hikoyat va rivoyatlarni epizod sifatida qo'shish orqali matnning estetik ta'sirchanligini oshiradi. Natijada, hujjatlilik (real voqelik) va badiiy ijod (lirik chekinish) o'zaro qovushib, safarnomaning mukammal adabiy-badiiy namunasini yuzaga keltirgan.

Shunday qilib, N.I. Konrad talqinidagi safarnoma janri Markaziy Osiyo mumtoz adabiyotida shunchaki yo'l yozuvlari emas, balki geografiya, tarix, etnografiya, psixologiya va badiiy adabiyotning tutashgan nuqtasida paydo bo'lgan murakkab va serqirra adabiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, sharqshunos olim N.I. Konrad Markaziy Osiyo mamlakatlarida safarnomaning badiiy xususiyatga ega ekanligini, makon va zamon, urf-odat, qadriyat tasviri muhim ekanligini alohida ta'kidlaydi. A. O'rinboyevning ta'kidlashicha: "Abdurazzoq Samarqandiyning 1442-1444-yillardagi "Hindiston safarnomasi" 1405-1427-yillar voqealari aks etgan I jildning 1-qismi forsiy tildagi tanqidiy matni bilan 1969-yil o'zbek tilida Toshkentda chop etildi. 1992-yilda esa "Matla'i sa'dayn va majmai bahrayin"ning shu qismiga kiritilgan G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safari kundaligi o'zbek tilida nashr qilindi. Asarning II jild 2-3-qismlari ham o'zbek tiliga tarjima etilgan" [9]. 1442-yil Shohruh Mirzoning topshirig'i bilan Hindistonga elchi qilib yuborilgan olim Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayin" kitobiga "Hindiston safari dostoni va u yerning ajoyib-g'aroyibotlari" tafsilotlari ham kiritilgan. Muallif-sayyoh Hindiston safari natijasida Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo kabi mamlakatlarning

tarixi, madaniyati, etnografiyasiga oid qiziqarli, ishonchli ma'lumotlarni tasvirlagan asar yozib qoldiradi.

O'zbek adabiyoti tarixida davlat arboblari, adiblar hamda taniqli insonlarning bir qancha asarlarida safarga oid mavzularning qo'llanilishini kuzatamiz. Safarnomalarning kurtaklari o'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy ijodida ko'zga tashlanadi. Navoiy Abdusaid Mirzo hukmiga ko'ra Hirotidan Samarqandga yuborilgach, ustoz Sayyid Hasan Ardasheriga o'z safari taassurotlarini adabiyotshunoslikda "hasbi hol" nomi bilan mashhur bo'lgan she'riy maktub shaklida yo'llaydi. Navoiy ushbu asari orqali safar bilan bog'liq o'z holatini she'riy yo'lda ifoda etadi. S. Ahmedovning fikricha, Navoiyning ushbu asari "memuar xarakterdagi avtobiografik safarnoma janrining dastlabki namunasidir" [1:7]. Avtobiografik, memuar janrga xos bo'lgan safarnomaning yorqin namunasi Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy asari hisoblangan "Boburnoma" haqida o'zbek va jahon adabiyotshunosligida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon izchil davom etmoqda. Adibning birgina "Boburnoma" asari janri bo'yicha turli fikr va qarashlar uchraydi. Bunday bahslarning yuzaga kelishi, avvalo, asarning keng ko'lamliligi, turli sohalarini o'zida umumshtirgani, shu bilan birga unda ham badiiy, ham ilmiy janr unsurlari mavjud ekanligidadir.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari – shakl jihatidan murakkab bo'lib, katta hajmdagi tarixiy memuar materiallarni, shoir Bobur va zamondoshlari tomonidan bitilgan she'rlarni, taniqli tarixiy shaxslar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni, shuningdek, bir qator mamlakatlar va xalqlar madaniyati, urf-odatlarini tasvirini, hayvonot va o'simlik dunyosini, ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini, o'zining harbiy yurishlari va o'zaro nizoli urushlar tarixini va tahlilini o'ziga qamrab olgan sinkretik asar.

"Boburnoma" janri ushbu asarga bag'ishlangan tadqiqot ishlarining aksariyatida tarixiy-memuar asar sifatida beriladi. Nazarimizda, Boburning mashhur "Boburnoma" asari ham yo'l xotirasining bir turidir. "Boburnoma" asari "badiiy publitsistikaning betakror va betimsol namunasidir. Unda badiiyatga xos quyma tasvirlar, tiniq manzaralar, yorqin obrazlar, timsollar bilan publitsistikaga xos aniq tushunchalar, mantiqiy muhokamalar haqqoniy ta'rif-tavsiflarning tabiiy uyushuvi, ajib bir ittifoqini ko'ramiz" [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek mumtoz adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va evolyutsiyasi uzoq tarixiy hamda badiiy-estetik ildizlarga ega bo'lib, o'zbek nasrining ilk bosqichlari kabi xalq og'zaki ijodi hamda qadimgi yozma yodgorliklar bag'rida kurtak otgan.

Tadqiqot jarayonida erishilgan asosiy ilmiy xulosalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Janr elementlarining nomachilikda aks etishi: XIV asr oxiri va XV asr boshlarida o'zbek mumtoz adabiyotida sof dor safarnoma shaklidagi asarlarga qaraganda, yo'l taassurotlari, geografik va ruhiy safar elementlarini o'zida mujassam etgan nomachilik hamda munozara janrlari yetakchilik qildi. Dastlab X-XII asrlarda forsiy adabiyotda diniy-tarixiy ruhda yuzaga kelgan ("Xudoynoma", "Shohnoma") noma an'anasi keyinchalik turkiy adabiyotga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

- O'zbek nomachilik maktabining shakllanishi: Xorazmiyning dunyoviy va lirik g'oyalarni tarannum etgan "Muhabbatnoma" asari o'zbek adabiyotida noma janrini yangi bosqichga olib chiqdi. Buning mantiqiy davomi sifatida Xo'jandiyning "Latofatnoma", Said Ahmadning "Taashuqnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma" hamda Said Qosimiyning "Haqiqatnoma" va "Sadoqatnoma" kabi asarlari yaratildi. Ushbu matnlarda makonlararo muloqot va masofa orqali kechadigan kechinmalar bayoni safarnoma elementlarining sinkretik rivojlanishini ta'minladi.

- Safarnoma janrining mustaqilligi va maqomi: Safarnoma va sayohatnoma tushunchalari uzoq vaqt davomida sinonim sifatida qo'llangan bo'lsa-da, ularning poetik vositalari hamda badiiy metodologiyasi tubdan farqlanadi. Sayohatnomada romantizm va taxayyul unsurlari

ustuvorlik qilsa, safarnoma aniq maqsadga qaratilganligi, zamon va makon (xronotop) aniqligi hamda realizm metodiga tayanishi bilan ajralib turadi.

- Ilmiy-ma'rifiy va amaliy qimmati: Safarnoma janri asrlar davomida elchilik (diplomatik), diniy-ziyorat (hajnoma), ilmiy-geografik hamda publitsistik yo'nalishlarda rivojlandi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari ushbu janrning ilmiy va etnografik cho'qqisi bo'lsa, XIX asr oxiri — XX asr boshidagi jadidlar safarnomalari jamiyatni ma'rifatga chorlash va qiyosiy-tahliliy fikrlashning muhim vositasiga aylandi.

Umuman olganda, safarnoma janri nafaqat badiiy-estetik qimmatga ega adabiy hodisa, balki tariximiz, etnografiyamiz, tilshunosligimiz hamda madaniyatlararo muloqotimizni o'rganishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ахмедов С. Ўзбек демократик адабиётида саёхатнома // Адабий мерос. – 1986, № 1 (35). – Б.7.
2. Абу Ҳомид Ғаззолий. Саодатга элтувчи илм. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.173.
3. Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон / Асарлар. – Т.: Маънавият, 2023
4. Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-жомий ас-саҳиҳ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 173.
5. Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Наука, 1966. – С. 251.
6. Раҳими Мусулмониён. Назарияи адабиёт. – Душанбе: Маориф, 1990. – Б. 149.
7. Умиров С. "Бобурнома" - бадий мақоланависликнинг гўзал намунаси / Жаҳон адабиёти. 2003, 2
8. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний; Ахлоқи муҳсиний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б.76
9. Ўринбоев А. Абдураззоқ Самарқандий (1413-1482). E-tarix.uz